

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

**Namangan davlat universiteti
rektori**

S.T.Turg‘unov

2024-yil

**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni
Namangan davlat universitetining “60320400-Kutubxona-axborot
faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)” ta‘lim yo‘nalishiga suhbat
asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha**

DASTUR

60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022-yildagi 17-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizomiga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

O.R.Topildiyev - Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrasida dotsenti, t.f.n.

B.B.Inatullayev - Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrasida dotsenti

M.X.Tojaxmedova - Musiqa ta'limi va Madaniyatshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

S.U.Goyibova - Musiqa ta'limi va Madaniyatshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

KIRISH

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022 yildagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqilgan.

Suhbat Qaror bilan tasdiqlangan **"Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom"** asosida o'tkaziladi.

1.Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

Universitet rektori 10-avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translatsiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil universitetda saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan universitet rektori zimmasiga yuklatiladi.

Bitiruvchilarni universitetga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10-avgustdan 25-avgustgacha, universitet tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay universitetda tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim.

Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

2. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi

- I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;
- II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);
- III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);
- IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

3. Baholash mezonlari

Jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Mazkur savollar bo'yicha baholash mezonlari universitet tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanadi hamda ularning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Savollar universitet qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanaadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi, bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi **67** ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

4. Apellyatsiya komissiyasi

Universitetda suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida universitetda to'g'ridan to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5. Suhbat natijalari

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda universitet rektori tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil universitetda saqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari mehnatiga haq to'lash universitet talabalariga o'quv mashg'ulotlarini olib borganlik uchun belgilangan soatbay haq to'lash shartlarida universitetning budjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha

I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo'yicha

O'zbekiston Respublikasining "Kutubxona-axborot faoliyati to'g'risida"gi qonuni mazmun-mohiyati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-sonli qarori mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonuni mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi "2020/2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-sonli qarori mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-son qarori mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi "Kutubxona-axborot a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi 803-son qarori mazmun-mohiyati. Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosdagi huquqiy – meyoriy asoslari. O'zbekiston Respublikasida kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning huquqiy – meyoriy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Beshta muhim tashabbus.

O'zbekistonda kutubxona-axborot markazlari faoliyati. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona faoliyati. Kutubxona - axborot xizmatining XXI asrdagi rivojlanish yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 20 iyuldagi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonuni mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi 2017 yil 8 sentyabrdagi qonuni mazmun-mohiyati. «Respublika aholisini kutubxona-axborot bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida»gi 2006 yil 20 iyundagi PQ-381-sonli qarori mazmun-mohiyati. «2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida kutubxona-axborot va axborot-resurs xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2011 yil 23 fevraldagi PQ-1487-sonli qarori mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-sonli Farmoni mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi - axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2012 yil 20 martdagi 1729-sonli qarori mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish. «Nogironligi bo'lgan shaxslarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2018 yil 18 sentyabrdagi 739-sonli qarori mazmun-mohiyati. Kutubxona-axborot faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash tizimi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi mazmun-mahiyati.

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni targ'ib etishning ahamiyati va vazifalari nimalardan iborat? Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat? "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" haqida ma'lumot bering. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning qanday asoslari yaratilgan? Texnikaga oid adabiyotlar targ'iboti nimalardan iborat bo'lishi kerak? Badiiy adabiyotlar targ'ibotida nimalar muhim o'rin tutadi? Oilaviy kitobxonlik deganda nimani tushunasiz? Oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda nimalarga ahamiyat berish kerak? Ota-onalar farzandlarini kitobga bo'lgan muhabbatini oshirishda nimalarga e'tibor berishi lozim? Oila kitobi deganda nimani tushunasiz? Kitob o'qimagan bolani jazolash, unga turli bosimlar o'tkazish qanchalik to'g'ri? Bolani kitob o'qishga qiziqtirish uchun eng avvalo nimaga e'tibor berish kerak? Ijtimoiy-siyosiy kitoblar targ'iboti. Oilaviy davrasida qanday mavzudagi kitoblarni o'qish kerak deb hisoblaysiz? Bola tarbiyasiga oid qanday kitoblarni bilasiz? Aholi o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha tashkiol-etilgan ko'rik-tanlovlar haqida ma'lumot bering. Maktab kutubxona ishi rivoji. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda besh muhim tashabbus doirasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasida kutubxona-axborot sohasida amalga oshirilgan islohotlar. "Yosh kitobxon" Respublika tanlovi maqsad va vazifalari. "Kitobxon oila" ko'rik-tanlovi mazmun mohiyati.

Kitobxonlik xaftaligi maqsad va vazifalari. O'zbekistonda kitob va kitob mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha imtiyozlar tizimi. Kutubxona-axborot faoliyati sohasiga axborot texnologiyalarini joriy qilish imkoniyatlari Respublika aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatishning tashkil etilishi. XX asrda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi va istiqbollari. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kutubxonalarining o'rni Kutubxona-axborot faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish xaqida nimalarni bilasiz? Kutubxona-axborot faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan huquqiy-meyoriy asoslar xaqida nimalarni bilasiz? Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kutubxona-axborot faoliyatiga ta'siri xaqida nimalarni bilasiz? Kutubxona-axborot faoliyatini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va me'yoriy-huquqiy asoslari xaqida nimalarni bilasiz? ARMLarining huquqiy asoslari xaqida nimalarni bilasiz? Kitobxonlik festivallari va aksiyalari. Horijiy davlatlarda kitob va kitobxonlik madaniyati xaqida nimalarni bilasiz?

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) bo'yicha

Kutubxona-axborot sohasini tanlashdagi asosiy omillar. Kutubxona-axborot xizmati tizimi. Kutubxona-axborot-xizmatida iste'molchilar va o'qish psixologiyasi: nazariyasi va usullari. Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyotining asosiy tamoyillari. Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning maqsad va vazifalari. Kutubxona-axborot-xizmatida etika, muhit va samaradorlik. Axborot- kutubxona xizmatini ko'rsatishda kitobxonlar qiziqishini o'rganish. Kutubxona - axborot xizmati jarayonini o'rganishning sotsiologik va psixologik yo'nalishlari.

Foydalanuvchilarni o'rganishning umumiy metodlari. Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida. Kutubxona-axborot xizmati jarayonida muloqot madaniyati. Kutubxona-axborot xizmatining eng asosiy ijtimoiy yo'nalishlari. Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish va oilaviy mutolaani tashkil etish. Nogironlarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'zi ojiz foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish. Uy bekalari va vaqtincha ishsizlarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish. Foydalanuvchilarga kutubxona - axborot xizmati ko'rsatishning asosiy ma'lumot manbalari. Foydalanuvchilarga ma'lumot berish xizmatining yangi turlari va maslahat berish xizmatining rivojlanish yo'nalishlari. Yakka tartibda kutubxona - axborot xizmati ko'rsatish texnologiyasi. Ommaviy tarzda kutubxona - axborot xizmati ko'rsatish Targ'ibot kutubxonalar ta'sirini kengaytirish vositasi sifatida.

Xorijiy mamlakatlarda ommaviy tarzda kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish tajribasi. Kitobxonlik madaniyati nima? Mutolaa psixologiyasi va kitobxon tipologiyasidagi muammolarni hal qilish uchun nimalardan iborat? Mutolaa motivlari nimalardan iborat? Kitobxon faoliyati nechta darajaga bo'linadi? Natijaviy baholash fazasi deganda nimalarni tushunasiz? Kitobxon qiziqishlari qanday klassifikatsiyaga bo'linadi? Kitobxonning qiziqishlari nima? Kitobxon qiziqishi shakllanishining qonuniyatlari nimalardan iborat? Kitobxonning shaxsiy qiziqishlarining mutolaaga qanday aloqadorligi bor? Milliy tarbiya tizimida kitobxon qiziqishiga ta'sir etishning qanday yo'nalishlari mavjud? Kitobxonlarning qiziqishi, talab va ehtiyojlarini o'rganishda nimalarga ahamiyat berish kerak? Kitobxon bilan olib boriladigan suhbatlar haqida ma'lumot bering.

An'anaviy kutubxonachilik tajribasi deganda nimani tushunasiz? Kitobxon bilan olib boriladigan suhbatning qanday turlari mavjud? Kitobxon formulyari nima? Kitobxon qiziqishining tarbiya tizimi bilan qanday aloqadorligi bor? Kitobxon formulyari necha qismdan iborat? Kitobxonning qiziqishini o'rganishda anketa usulidan qanday foydalaniladi? Bolalar, o'smirlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Bolalarni kitobxonlikka qiziqtirishda nimalarga e'tibor berish lozim? Kitobxonlikni rivojlantirishda bolalar psixologiyasi qanchalar muhim? Kichik maktab yoshidagi bolalarning kitobxonlik salohiyatini oshirish uchun qanday mavzudagi adabiyotlarni taklif qilasiz. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qanday adabiyotlar ro'yxati shakllantirilgan? Bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni adabiyotga qiziqtirish uchun qanday metodlar ishlab chiqilgan? O'smirlik davri bolalarining psixologik to'g'ri shakllanishi uchun eng avvalo nimalarga e'tibor berish kerak? Kutubxonachi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat qanday qoidalarga tayangan holda olib boriladi? Akademik litsey o'quvchilari uchun qanday mazmundagi adabiyotlar ro'yxati shakllantirilgan? Kitobxonlikda gender tenglik haqida nimalarni bilasiz?

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) bo'yicha

Zamonaviy kutubxonachi shaxsiga qo'yilgan talablar. Kutubxonachi ijodiy qobiliyatni namoyon qiling. Kutubxona-axborot muassasasi hodimining texnik ko'nikmalari. Bulg'usi kutubxona-axborot muassasasi xodimiga qo'yilgan talablar nimalardan iborat? Millatlararo va madaniyatlararo totuvlik masalasida kitobning o'rni. Ko'pmillatlilik va baynalminallik muhitida kutubxona-axborot xizmatining o'rni. Ilmiy tadqiqot faoliyatida kutubxona va kitobning o'rni. Badiiy asardan parcha va uning tahlili. Kutubxonada jamoatchilik bilan aloqalar va OAV bilan ishlash. Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish jarayoniga kreativ yondashuv. Kutubxonachi shaxsning sifatlari. Kutubxona-axborot muassasasida ijodiy muhitni shakllantirish. Yoshlarni ijodiy

qobiliyatini shakllantirishda kutubxona vakilining roli. Shaxsiy tashabbuskorlik deganda nimani tushunasiz?

O'zbekiston Respublikasida kutubxona-axborot sohasini rivojlantirish bo'yicha takliflaringiz. Kutubxonachi shaxsning mas'uliyati va faoliyatiga dahldorlik tushunchasi. Kutubxonachining hodimlar bilan munosobati. Kitobxon va muassasaga keluvchilar bilan muloqot o'rnatish. Kutubxona sohasida hozirga qadar erishgan yutuqlaringiz. Kitobxonni mutolaaga jalb qilishda asosiy omillar. Kitobxonni muloqotga jalb qilishning asosiy omillari. Kutubxona-axborot faoliyati etikasi. Kutubxona-axborot muassasasi xodimining kitobxon oldidagi majburiyatlari. Kutubxona-axborot muassasasi hodimining kasbiy fazilatlari. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona-axborot muassasasini hodimining o'rni.

Kutubxona-axborot tashkilotlarining tashkiliy tuzilishi, bo'lim turlari. Kutubxona-axborot faoliyatini rejalashtirish. Kutubxona-axborot faoliyatida uslubiy ishlar. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish tuzilmasi. Kutubxona-axborot tashkiloti rahbarlari. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarishda motivatsiya. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarishning ijtimoiy-psixologik asoslari. Kutubxona-axborot tashkilotlarining moliyalashtirish tamoyillari, manbalari va o'ziga xosligi. "Kutubxona-axborot faoliyati" ijtimoiy-madaniy tizimning tuzilmasi, asosiy qirralari. "Kutubxona-axborot faoliyati"ni tizim sifatida rivojlanishining o'ziga xosligi va qonuniyatlari. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarishning prinsiplari, funksiyalari va shakllari. Kutubxona-axborot faoliyatida boshqarish usullari. Kutubxona-axborot faoliyatining boshqarishning ijtimoiy ma'suliyati. Kutubxona-axborot faoliyatining boshqarish etikasi. Kutubxona-axborot faoliyatining boshqarish madaniyati. Zamonaviy kutubxona-axborot faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

Kutubxona-axborot muassasalari hodimlarining muammoli vaziyatda o'z o'zini boshqarishi. Kutubxona-axborot muassasasi hodimining kasbiy kompetentligi. Kutubxona-axborot muassasasi hodimining ijtimoiy kompetentligi. Kutubxona-axborot muassasasi hodimining pedagogik kompetentligi. Yevropada uyg'onish davri kutubxonalar faoliyati tarixi. Turkiston jaddidlarining matbuot, kitob, kutubxonalar rivojiga qo'shgan hissalar. Mustaqil O'zbekistonda kutubxonashunoslik tarixi. Kutubxona-axborot faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari. Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy me'yoriy asoslari.

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha

Qadimgi dunyo davrida kitob va kutubxonalar. Qadimgi Yunonistonda kutubxonashunoslik ishi. Qo'lyozma kitob matnining tuzilishi. Qadimgi Mesopotamiyada kitob va kutubxonalar. Qadimgi Misr kitoblari va kutubxonalar. Qadimgi Rim kutubxonalar. Qadimgi turkiy yozuvi va kitobati.

Temuriylar davrida kitobat ishi. Kitob soʻzining mazmun mohiyati va kelib chiqish tarixi. Kitob va kitobat ishining rivojlanish qonuniyatlari. Kitob va kitobat ishining tarixini tadqiq qilish printsiplari va metodlari. Kitob va kitobat madaniyati tarixida Avestoning tutgan oʻrni. Beruniyning bibliografiyaga qoʻshgan hissasi. Mirzo Ulugʻbekning kitob va kitobat ishi rivojiga qoʻshgan hissasi.

Kutubxona kataloglari va ularning ahamiyati. Alfavit katalogining sistemali katalogdan farqli jihatlarini asoslab bering. Fondlarni toʻliq aks ettirish boʻyicha kataloglarning bir-biridan farqi. Markaziy kataloglar qanday muassasalar fondini aks ettiradi? Kutubxona kataloglarining turlariga xarakteristika bering. Kutubxona fondi haqida axborot berishda kataloglarning ahamiyati haqida gapiring. Kataloglarga qoʻyiladigan talablar qanday? Kutubxona fondining oʻziga xos belgi va xususiyatlari qanday? Kutubxona fondini shakllantirish yoʻllari va tamoyillari haqida gapiring? Kutubxona fondini tashkil etish texnologiyasi. Matbuot tushunchasi va matbuot asarlarini izlash jarayoni haqida nimalarni bilasiz?

Nashr turlarini obyektiv kriteriyasining umumiy maqsadi nimalarda? Seriyali nashrlar haqida maʼlumot keltiring. Elektron kutubxonaning funksiyalari va vazifalari. Elektron kutubxonaning elektron katalogi. Elektron katalog yaratish tamoyillari. Elektron katalog maʼlumotlar bazasini yaratish texnologiyasi. Oʻrta Osiyoda bibliografiyaning paydo boʻlishi va rivoji. Bibliografik ishning vazifalari va mazmuni. Yevropada bibliografiyaning boshqa turlarini paydo boʻlishi.

Tavsiya bibliografiyasi tushunchasi. Respublika Milliy kitob palatasining tashkil topishi va rivojlanish tarixi. Bibliografiya ishini tashkil etish. Universal, tarmoq, kompleks bibliografiyasi. Shaxs bibliografiyasi haqida umumiy tushuncha. Mahalliy arboblarning haqidagi bibliografik koʻrsatkichlar va qoʻllanmalar, lugʻatlar va boshqalar. Soha bibliografiyasi haqida umumiy tushuncha. Ijtimoiy-siyosiy bibliografiyaning oʻziga xos xususiyatlari. Guruhli va yalpi tarzda kutubxona - axborot xizmati koʻrsatish. Kutubxona - axborot xizmatining samaradorlik koʻrsatkichlari. Kutubxona - axborot xizmatining tarkibiy boʻlinmalari. Abonement - kutubxona -axborot xizmatining asosiy boʻlimi. Oʻquv zallarida kutubxona-axborot xizmatini tashkil etish. Kutubxona - axborot xizmatini nashr mahsulotlaridan tashqari amalga oshirish shakllari. Foydalanuvchilarga kutubxonadan tashqarida xizmat koʻrsatish turlari. Virtual (elektron) kutubxona xizmati. Kutubxonachilik ishiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish Kutubxonachilik sohasida kutubxonachi shaxsining ijtimoiy moslashuvi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Ishonch. – 2017. –17 yanvar.

2. Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida” 2006 yil 20 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so'zi-2006.-20 iyun

3. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish.-T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-B.3-68.

4. Saidov U., Nigmatova Z., Shamsiyev Sh. Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. -224 b.

5. Yesimov.T.B O'zbekistonda kutubxonachilik ishining shakllanishi va rivojlanishi.-T.:1994.-74 b.

6. Yuldashev. E. Kutubxona fondlari/ Darslik. – Toshkent: 2006.-100b.

7. G'aniyeva B.I.Axborot –kutubxona kataloglari va fondi.O'quv qo'llanma.Toshkent:2017.-212b.

8. Bibliografiya./(Umumiy bibliografiya) Madaniyat, san'at va pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma.Z.Berdiyeva, H.Mamatraimova, T.Zokirov.Toshkent:O'qituvchi,2013.- 205 b.

9. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-1-qism Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.

10. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.

11. Yesimov.T.B O'zbekistonda kutubxonachilik ishining shakllanishi va rivojlanishi.-T.:1994.-74 b.

12. G'aniyeva B.I. Kutubxona kataloglari: Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma / G'aniyeva B.I.-T.: Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy – metodik hamda axborot markazi, TDMI, 2012.-135b.

13. Mamatraimova X. Bibliografiya tarixi: “Bibliografiya nazariyasi va tarixi” fanidan o'quv qo'llanma.- T., 2008.- 82 b.

14. Axborot-bibliografiya faoliyati, bibliografiya. Atamalar va tushunchalar: O'z DSt 1214: Rasmiy nashr: 2009 y. 14 aprelda № 05-143 ro'yxatga olingan va 2009 y. 20 apr. amalga joriy etila boshlagan / Tuzuvchilar: M.X.Maxmudov, A.SH.Muxamadiev; O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligi.- T., 2009.- 86 b.

15. Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif: Umumiy talablar va tuzish qoidalari: O'z DSt 1215: Rasmiy nashr: 2009 y. 14 aprelda № 05-143 ro'yxatga olingan va 2009 y. 20 apr. amalga joriy etila boshlagan / Tuzuvchilar: X.Mamatraimova,

16. D.Qudratova; O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligi.- T., 2009.- 86 b.